

JAHONGIR AHMEDOV IJODIDA O‘ZBEK KINO JANRINI TUTGAN O‘RNI

Z.I Arzibayeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mustaqillikdan keyingi davrlarda qariyb mavjud barcha sohalarda katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa san’at va madaniyat sohasidagi yaratigan imkoniyatlar samarasi, yosh avlod tarbiyasi va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshib boririshida katta omil bo‘lmoqda. Ayniqsa, kino sohasidagi rivojlanishlar samarasi shu yigirma yil ichida xalqning madaniyat va san’atga bo‘lgan qarashlarini ham tubdan o‘zgartira oldi deyish mumkin. Bu maqola aynan kinorejissurada tendensiyalar, tarixiy-nazariy xususiyatlar har tomonlama ilmiy tahliliga qaratilgan. jahon kino san’atida rejissorlik tendensiyasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlariga urg‘u berilgan. O‘zbek kinosi taraqqiyotida rejissorlik tendensiyalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari atroflicha tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: kino, film, rejissura, prodysuser, industriya, san’at, akter, mahorat.

*Kino – bu siz ko‘rmaydigan odamlar bilan
muloqot qilish zaruriyati*

O‘zbek kino san’at olamida bugungi kunga qadar katta o‘zgarish va rivojlanish bosqichlari kuzatilmoda. Ayniqsa, ijodkorlar ish jarayoni uchun talab etiladigan davlat standartlariga mos texnik uskuna va jihozlarning zamonaviy ko‘rinishlarini kirib kelishi natijasida, filmlar suratga olish jarayonidagi imkoniyatlar kengaymoqda, sifati uchun esa yetarli darajada ijobiy ta’siri ham kuzatilmoqda. Yaratilayotgan filmlar o‘zbek kino industriyasi rivojlanishi, taraqqiyoti, targ‘ibotida bu yangilanish ko‘p jihatdan jahon miqyosiga ko‘tarilishimizda muhimlik kasb etadi. Vaholanki, bu texnik rivojlanish qaysidir ma’noda kino olamidagi ayrim aktyor va ijodkorlarning professionallik darajasi qanday bo‘lsada, uni sun’iy ravishda bo‘rttirish kabi jihatarda ham o‘zini namoyon qilayotganigini sir emas. Ayni paytda biz, bu xaqda emas, balki kino san’atining bugungi kundagi o‘rni va rivoji yo‘lida o‘z xissasini qo‘shib kelayotgan davr ijodkori rejissyori, o‘z kasbini ustasi, zamondoshimiz Jahongir Axmedov ijodiy faoliyati va kino san’atidagi o‘rni haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Shu kunga qadar ikki asr orasida yaratilgan, xalqimizning e’tiborini o‘ziga jalb qila olgan, o‘zbek filmlar retrosi mavjudki, xattoki filmdagi obrazlarni va mashhur aktyorlarning

iboralari, ko‘pchilik tomoshabinlar orasida mashxurlikka erishib bo‘lan. “Sen yetim emasan”, “Maftuningman”, “Yor-Yor, “Mahallad duv-duv gap” shu kabi retro filmlar jumlasidandir. Tarixiy va real xayotiy voqealarga asoslangan bu filmlar hanuzgacha, makon, zamon, muhit va yosh tanlamaydi, Hamisha dolzarbligini saqlab kelmoqda. Sabab, bu kabi filmlar ijodkorlarining xar biri o‘z davrida, kasbining fidoyisi va mutaxassislari ekanliklari bilan bahonadi.

Mustqaqillik yillaridan keyingi davrga kelib, qariyb barcha sohada yetralicha rivojlanishi, o‘sishi va taraqqiyotini kuzatdik. San‘at olamida, aynan kino san‘atida ham bu kabi shiddatdi rivojlanish, o‘zgarishlar xam so‘zlarimiz isbotidir. Aktyorlik, rejissyorlik, prodyusserlik sohasi ham katta taraqqiyot bochqichini bosib o‘tmoqda.

Bu borada kino san‘ati ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, barcha soha jabhalari kabi o‘zbek kino industriyasi tarkibidagi rejissura ham shiddat bilan rivojdanishi kuzatilayapti.

Bu o‘rinda Ahmedov Jahongir ijodiy faolitag nazar solsak.

Jahongir Axmedov Adilxodjevich 1983-yil 4-fevralda Toshkent viloyatida tug‘ilgan. 25-sonli o‘rta maktabni tamomlagan. 2002-2008 yillarda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining rejissyorlik yo‘nalishida bakalavriyat va magistratura bosqichida tahsil olgan. O‘zbekiston Davlat san‘at instituti dotsenti Jahongir Ahmedov katta kinodagi faoliyatini 2009 yilda “Uylanish” romantik komediyasini suratga olishdan boshlagan. U bu filmga o‘zi ssenariy yozdi va rejissyorlik qildi. Bu uning tom ma‘noda rejissyorlik ishidagi ilk qadami bo‘ldi. Zero, film kino muxlislari tomonidan juda yaxshi kutib olindi. Mallif bu bilan to‘xtab qolmadi, Ijodida 2010-yilda “Omad” va aynan o‘sha yili “Tundan tonggacha”, 2012-yil “Tilim qursin” 2016-yil “Majnun” kabi kinofilmlarini yaratib, o‘z muxlislari orasida mashhurlikka erishdi deyish mumkin.

Uning mashxurlik darajasiga molik yana bir mualliflik ishi 2018-yilda ekran yuzini ko‘rdi. Xorazm vazirlaridan biri, tarixiy shaxs “Islom Xo‘ja” filminidir.

Bu film nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham namoyish etildi va tomomshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Ijodkor 2018 yil - O‘zbekiston kinematografchilar ijodiy uyushmasi boshqaruvi a‘zosi sifatida o‘z faoliyatini davom ettirdi. Oradan bir yil o‘tgach, 2019 yil - O‘zbekiston Kinematografiya agentligi badiiy kengashi a‘zolgiga saylandi.

2020 yil – O‘zbekiston Rassomlar va ijrochilarning mualliflik huquqi palatasi boshqaruvi a‘zosi sifatida katta hajmdagi ijodiy-tashkiliy ishlarga raxbarlik qila boshladi.

Shu navbatda 2020-yilda ijodkor Ikkinchi jahon urushi voqealari haqida hikoya qiluvchi “Ilhaq” dramatik filmi yaratilishiga qo‘l urdi. Film rejissyori va ssenariy muallifi sifatida uning bu ijodiy ishi boshqa filmlardan tubdan farqlanardi. Film taqdimoti kinoteatlarda emas, balki

telekanallarda namoyish etildi, chunki u 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab qulflangan edi. Tanqidchilar “Ilhaq” filmini yuqori baholadilar. Oz vaqt ichida film mashxurlikka erishib ulgurdi. Qator festivallarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan, va tomoshabinlarda muallifga nisbatan va o‘zbek kinosiga nisbatan munosabat va qarashlar o‘zgargandi deyish mumkin. Xususan, Belorussiyadagi “Listopad” festivalida eng yaxshi film deb topildi. O‘zbekistonda esa, yilning eng yaxshi film uchun “Oltin Humo” mukofoti sovrindori ham bo‘ldi. Uning ijodiy ishlari va kino san’atidagi mavqei va faloiyati munosib baholanib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlandi..

Milliy komediyalarni targ‘iboti va ishlab chiqarishda yosh rejissyorning ham munosib izlanishlar taqsinga loyiq. Xususan, uning mashhur filmlaridan biri ikki qismli “Tundan tonggacha” komediyasi ham tomoshabinlar mehrini qozongan. Film yetakchi xatti-harakat tizimiga asoslangan, unga ko‘ra bosh qahramon film davomida bir maqsad (banan topish) yo‘lida harakatlanadi va maqsadiga yetishi bilan yakun topadi. Filmda umuman ortiqcha epizodni sezmaydiz. Umuman, voqealar ketma-ketligi va tanlangan xarakterlar film badiiy yaxlitligini ta’minlagan.

Filmning ikkinchi qismida esa mana shu sarguzashtlar bilan dunyoga kelgan bolakay asosiy dramaturgik vaziyatni tug‘diradi.

Ikki film ham tomoshabinlar tomonidan samimiy qabul qilingan va haligacha sevib tomosha qilinadi. Filmning ssenariy muallifi va rejissyori aynan Jahongir Ahmedov, u o‘z filmiga professional tarzda yondashishga harakat qilgan. Uning bu harakati o‘zini oqlagan deb bemalol ayta olamiz.

Film operatori Iqbol Meliqo‘ziyev kadrlaridan ham ko‘nglingiz to‘ladi. Bu film bastakori Doniyor Agzamov ham xar bir ko‘rinish va aktyor holati va xarakteriga mos ravishda musiqiy leymotiv (obraz uchun talangan musiqiy mavzu)larini o‘ziga xos talqinda ifoda etishga muyassar bo‘lgan. YA’ni, doimgidek o‘z ishining ustasi musiqiy bezakka alohida mehr va e’tibor bergan. Filmning muvaffaqiyati albatta ijodiy jamoa va yig‘ilgan aktyorlar ansablini to‘g‘ri tanlanganligidadir. Nafaqat filmdagi asosiy va bosh xaqramon obrazlar yaratuvchilar ustunligi, balki, sahna ortidagi barcha ijodiy guruhning hamjihatligi, mukammalligi uning yaxlit mezoni hamdir deyish mumkin.

Bular qatoria Jahongir Ahmedov ssenariysi va Alisher Uzoqov rejissyorligidagi “Mening akam bo‘ydoq” va “Endi dadam bo‘ydoq” filmlari ham an’anaviy komediya elementlariga mosdir. Bu filda ham kinokomediya butun ijodiy guruh janr va badiiy film mohiyatini teran anglagan holda o‘z vazifalarini a’lo darajada bajarganliklarini kuzatamiz.

Filmdagi bosh rollarni mohir yetuk aktyorlardan Matyoqub Matchonov, Ra'no Yarasheva, Alisher Uzoqov, Madina Mumtoz, Tolib Mo'minov va Sitora Farmonovalar ijro etishgan. Asar mualliflarining professional yondashuvi bilan xarakterlar yaqqol bir-biridan ajralib turadi. Qahramonlar butun film davomida o'z pozitsiyalariga sodiq, vaziyatlarga real va komik munosabatda bo'lishadi. Filmda postanovkachi operator Sherzod Shoxalilov, uning kadrlarida zamonaviylik va tasviriy yechimlar ko'p uchraydi. Umuman film montaji va grafikasida ham kreativlik sezilib turadi. Filmning ikki qismi ham professional ishlangan. Ayniqsa, “Endi dadam bo'ydoq” filmi tomoshabinlar mehrini ko'proq qozongan. Film 2012 yilda MMTV taqdirlash marosimida ikkita mukofot ya'ni “Yilning eng yaxshi filmi” va “Eng yaxshi rejissyor” nominatsiyalarini qo'lga kiritgan.

Jahongir Ahmedov o'z faoliyati davomida rejissyor sifatida 16 ta, ssenariy muallifi sifatida esa 30 dan ortiq badiiy film suratga olgan.

Xalqimiz “Tundan tonggacha”, “Oling quda-bering quda” kabi milliy kinokomediyalarni sevib tomosha qilishadi. Ushbu filmlar rejissyori Jahongir Axmedov muxlislar e'tiboriga yangi, milliy yo'nalishdagi kinokomediyani taqdim etdi. Film nomi xam antiqa, xam qiziq! “Tilim qursin!”. Bu film asosida ayrim hollarda insonlarning ijobiy va salbiy sifatlari, jamiyatimizda tez-tez uchraydigan kibrli insonlarning o'zaro munosabatlari, o'rinli yumor ostida ochib berilgan. Matyoqub Matchonov, Asqar Xikmatov, Sevara Soliyeva, Muxammad iso Abdulxairov kabi komediyani chinakam ustalari ijrosidan aynan “Tilim qursin” milliy komediyasida o'z aktyorlik mahoratini namoyish etishgan. Bu oilaviy komediya ham kinomuxlisleri tomonidan iliq kutib olindi.

Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli kino saroyida 6 mart kuni rejissyor Jahongir Ahmedovning «Majnun» filmi premyerasi bo'lib o'tdi. Rejissyori tomonidan xususiy kinosektordagi «eng uzoq vaqt suratga olingan film» [deya ta'riflangan](#),

“Majnun” filmining rejissyori Jahongir Ahmedov o'zining intervyularidan birida Rustam Sa'diyevning «Baron» filmi haqida savolga javob berar ekan: «‘Baron’ yaxshi film emas», — deya javob qaytaradi. «Unda qanday film?», — degan navbatdagi savolga: «‘Baron’ — zo‘r film!», — deya javob beradi. Xuddi shunday — «Majnun» ham yaxshi film emas, zo‘r film.

Navoiy nomli kino saroyida o'tgan premyerada 1,8 ming kishilik va 450 kishilik zallarni to'ldirib, shuningdek, yana taxminan 200 nafari tik oyoqda turib ko'rgan «Majnun» filmi uchun qarsaklar bilan kutib olshgan.

Aktyorlar jamoasi, sifat darajasi, saviya haqida ko'p gapirish mumkin. “Zamonaviy ham sifatli film suratga olish uchun nima kerak bo'lsa, hammasi qilindi. Ulug'bek Qodirov, Asal Shodiyeva, Matyoqub Matchonov, Ra'no Zokirova, Muhammadiso Abdulxairov, Elyor Nosirov,

Ra’no Shodiyeva singari aktyorlar jamoasi yig‘ilgan. Aktyorlar tarkibidan tortib, operatorlik ishi, montaj, grimchilar, texnika, liboschilar, rassomlar masalasida ham alohida ish olib borildi.- deydi muallif o‘z intervyularida.

Matyoqub Matchonov va Muhammadiso Abdulxairovning ishtiroki haqida ham iliq fikrlarni aytish mumkin. “Matyoqub Matchonov va Muhammadiso Abdulxairov ‘Majnun’ filmida umuman kutilmagan — vajohatli, og‘ir, to‘pori odamlar obrazini yaratgan. Ularga xos komedik unsurlarni ‘Majnun’da ko‘rmaysiz, ular 100 foiz o‘zgargan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, aynan rejiisyor sifatida mustaqillikdan keyingi davr mobaynida kino san’ati olamida o‘z o‘rni va maktabini yarata olgan, nafaqat O‘zbekistonda va qo‘shni davlatlarda ham o‘z muxlislariga ega, o‘zbek kino san’atini targ‘ibotchisi sifatida Jaxongir Axmedov faoliyati, ijod mahsuli katta axamiyatga ega.

- kino san’atida yetrali tajriba va bilim egasi ekanligi tomoshabinlarga taqdim etayotgan filmlarda o‘z aksini bermoqda;

- kelajak yosh avlod uchun zamoniviy va katta avlod vakillariga ham birdek mos mavzu va g‘oyalarni tanlay bilishi, tomoshabinlarni mexrini qozonishi ham uning kelajakdagi umidli ijodkor sifatida yangi filmlar yaratilishiga tom ma’noda ishoch bera oladi;

- kino san’ati olamida o‘sib kelayotgan yosh ijodkorlar uchun yetari tajribali maktab yarata olgan ijodkor;

- uning muvaffaqiyati va yutug‘i, mukammalilik omili ko‘p jihatdan, film uchun saviyali mahoratli aktyorlar jamoasini to‘g‘ri tanlay bilishi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev M. Kino asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Muhamedaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. – T.: Musiqa, 2009.
3. Muhamedov M. Rejissura asoslari. – T.: O‘zDismi, 2008
4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr. 2000.